

# "Koreya-O'zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti kimyo-texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish" loyihasi doirasida shartnoma imzolash marosimi bo'lib o'tdi

// 13.09.2024

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/koreya-o-zbekiston-ilmiy-tadqiqot-va-loyiha-instituti-kimyo->



Joriy yilning 12-sentabr kuni "O'zkimyo sanoat" AJda "Koreya-O'zbekiston ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti kimyo-texnologiya innovatsiya markazini tashkil etish" loyihasi doirasida loyiha bosh pudratchisi bilan shartnoma imzolash marosimi bo'lib o'tdi.

Unda "O'zkimyo sanoat" AJ rahbariyati, Hyundai Corporation katta vitse-prezidenti - Choy In-Bom, jamoa rahbari Kvak Xo-Min, "Bomi Engineering & Construction Co., Ltd." kompaniyasi ijrochi vitse-prezidenti Kang Chang Hun va "SeAH" kompaniyasining xalqaro biznes bo'limi rahbari Jong Jun-Yon ishtirok etishdi.

"Koreya-O'zbekiston" ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti kimyo-texnologiya innovatsiya markazi "O'zkimyo sanoat" AJ tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi va Koreya Respublikasi o'rtasidagi alohida strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot va loyihalash instituti - Kimyo texnologiyalari markazini tashkil etish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va "Kimyo sanoati uchun innovatsion kimyoviy ilmiy-ishlab chiqarish va ta'lim klasterini tashkil etish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi qarorlariga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Marosimda "O'zkimyosanoat" AJ hamda "Hyundai Corporation" tarkibidagi "Hyundai", "Bomi", "SeAH" kompaniyalari o'rtasida to'rt tomonlama shartnoma imzolandi.

Ushbu markaz respublikamiz kimyo sanoatiga zamonaviy xorijiy tajribalarni jalb qiligan holda, soha mutaxassislarining kasbiy ko'nikma va bilimlarini oshirish, ilm-fan, loyihalash va ishlab chiqarish o'rtasida chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash, innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga keng jalb qilishga xizmat qiladi.







"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati